

INGLIZ TILINI MAHSUS MAQSADLARDA O'RGANUVCHILARGA TIL O'QITISHNING METOD VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Farmonov Bahodir Do'stmurodovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Xorijiy tillar" kafedrası

bahodir.farmonov.88@inbox.ru

tel: +998 97 293 07 85

Annotatsiya: Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishlarda o'qiydigan talabalarga mutaxassislikka doir bo'lgan matnlarni ingliz tilida o'qitish metodlari hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rgatish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: English for Specific Purposes (ESP), Multilevel, ko'p darajali ingliz tilini o'qitish, Maxsus maqsadlarda ingliz tili o'rganish va o'qitish, Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi, usul, texnika, metod, kompetensiya, kommunikativ malaka.

МЕТОДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ

Фармонов Баходир Дустмуродович

Преподаватель иностранных языков

Каршинский инженерно-экономический институт

bahodir.farmonov.88@inbox.ru

тел: +998 97 293 07 85

Аннотация: В данной статье описаны методы преподавания текстов на английском языке студентам, специальность которых не является иностранным языком, с использованием современных методов и технологий.

Ключевые слова: ЕСП, Мультиlevel, многоуровневое обучение английскому языку, изучение и преподавание английского языка для специальных целей, транспортно-инженерное образовательное направление, метод, прием, метод.

METHODS AND MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING LANGUAGE TO ENGLISH STUDENTS FOR SPECIAL PURPOSES

Farmonov Bakhodir Dustmurodovich

Teacher of foreign languages

Karshi engineering-economics institute

bahodir.farmonov.88@inbox.ru

tel: +998 97 293 07 85

Abstract: *This article describes the methods of teaching texts in English to students whose specialty is not a foreign language, using modern methods and technologies.*

Key words: *ESP, Multilevel, multi-level English language teaching, English language learning and teaching for special purposes, transport engineering educational direction, method, technique, method.*

Kirish

Hozirgi jadal suratlarda rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini turli maqsadlarda, ya'ni turli sohalarda ta'lim olayotgan o'quvchi va talabarga o'rgatish hamda o'quv uslubiy ta'minotini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. XX asrning 60 - yillaridan boshlab ESP, maxsus maqsadlarda ingliz tili o'rganish, birinchi marta ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishning alohida yo'nalishi sifatida e'tirof etilganligi, keyinchalik shu doirada o'qitishning bu jihati sezilarli darajada rivojlanishini kuzatish mumkin. Shu tufayli mahsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish etakchi o'rinni egalladi.

Materiallar va metodlar

Jahon miqyosida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta'lim sohasining ham barcha tarmoqlarini innovatsion rivojlanishga yo'naltirish ahamiyatini va mavjud tizimni modernizatsiya qilish zaruratini belgilab berdi. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish tillararo muloqot faoliyati bilan tavsiflanadi. Muloqotda ishtirok etuvchilar o'rganilgan chet tili hamda ona tili yoki boshqa chet

tillari elementlarini o'z ichiga olgan xorijiy til manbaidan foydalangan holda o'zaro muloqot qiladilar. Biz transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarini jahon standartlariga mos bo'lgan bilim saviyaga erishishini ta'minlashimiz uchun, avvalambor talabalarning muayyan holatdagi bilim darajasini aniqlab shunga mos ravishda kichik guruhlar shakllantirish va har bir guruhda kerakli darajadagi lingvistik materiallardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini olib borishni ko'zda tutamiz. Kichik guruhdagi talabalarning bilim darajalari mos ravishda bir biriga teng yoki yaqin bo'lganda o'rganilayotgan mavzudan ko'zlangan samaradorlikga erishish mumkin. Va shundan keyingina biz yo'nalishga mos bo'lgan mavzularni va semantikani, hamda lingvistik shakllar bilan bir qatorda guruh a'zolarining saviyasiga mos ravishda tanlab olamiz. Tinglovchi so'zlovchi tomonidan amalga oshirilgan kognitiv jarayonlar va strategiyalarni tushunishi mumkin yoki bu holatdagi g'alizliklarni sezmaydi, chunki ular birinchi tilda tanish tuzilmalarga mos keladi. Ishtirokchilar bir xil til hamjamiyatiga mansub bo'lganligi sababli, chet tili darslarida muloqot boshqa til jamoalari a'zolari yoki maqsadli til hamjamiyatiga qaraganda muvaffaqiyatliroq bo'lishi mumkin. Chet tili darslarida shu tariqa ichki guruh tili normasi paydo bo'lishi mumkin.

Jahonda bugungi kunda pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida muhandislik ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida yangi ta'lim jarayonining kommunikativ kompetensiyalarni o'zlashtirishdagi o'ziga xos jihatlari maxsus o'rganilmoqda. So'zlovchining kommunikativ malakasini baholash mezonlari tilshunoslikning turli sohalariga, ya'ni grammatika nazariyasiga, psixolingvistikaga, sotsiolingvistikaga va til statistikasiga tegishli bo'lishi mumkin. Shu bois, mazkur ishlarda kommunikativ kompetensiya ta'rifi kommunikativ harakatni fanlararo tekshirishga ham alohida urg'u berilmoqda.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish tillararo muloqot faoliyati bilan tavsiflanadi. Muloqotda ishtirok etuvchilar o'rganilgan chet tili hamda ona tili yoki boshqa chet tillari elementlarini o'z ichiga olgan xorijiy til manbaidan foydalangan holda o'zaro muloqot qiladilar. Biz transport vositalari

muhandisligi yoʻnalishi talabalarini jahon standartlariga mos boʻlgan bilim saviyaga erishishini taʼminlashimiz uchun, avvalombor talabalarning muayyan holatdagi bilim darjasini aniqlab shunga mos ravishda kichik guruhlar shakllantirish va har bir guruhda kerakli darajadagi lingvistik materiallardan foydalangan holda dars mashgʻulotlarini olib borishni koʻzda tutamiz. Kichik guruhdagi talabalarning bilim darajalari mos ravishda bir biriga teng yoki yaqin boʻlganda oʻrganilayotgan mavzudan koʻzlangan samaradorlikga erishish mumkin. Va shundan keyingina biz yoʻnalishga mos boʻlgan mavzularni va semantikani, hamda lingvistik shakllar bilan bir qatorda guruh aʼzolarining saviyasiga mos ravishda tanlab olamiz. Tinglovchi soʻzlovchi tomonidan amalga oshirilgan kognitiv jarayonlar va strategiyalarni tushunishi mumkin yoki bu holatdagi gʻalizliklarni sezmaydi, chunki ular birinchi tilda tanish tuzilmalarga mos keladi. Ishtirokchilar bir xil til hamjamiyatiga mansub boʻlganligi sababli, chet tili darslarida muloqot boshqa til jamoalari aʼzolari yoki maqsadli til hamjamiyatiga qaraganda muvaffaqiyatliroq boʻlishi mumkin. Chet tili darslarida shu tariqa ichki guruh tili normasi paydo boʻlishi mumkin.

Jahonda bugungi kunda pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida muhandislik taʼlimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida yangi taʼlim jarayonining kommunikativ kompetensiyalarni oʻzlashtirishdagi oʻziga xos jihatlari maxsus oʻrganilmoqda. Soʻzlovchining kommunikativ malakasini baholash mezonlari tilshunoslikning turli sohalariga, yaʼni grammatika nazariyasiga, psixolingvistikaga, sotsiolingvistikaga va til statistikasiga tegishli boʻlishi mumkin. Shu bois, mazkur ishlarda kommunikativ kompetensiya taʼrifi kommunikativ harakatni fanlararo tekshirishga ham alohida urgʻu berilmoqda.

Mamlakatimizda maxsus maqsadlarda ingliz tilini oʻqitishga katta eʼtibor qaratilib, oliy taʼlim tizimida chet tillarni oʻqitishni takomillashtirishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Boʻlajak muhandislar uchun olib boriladigan ingliz tili amaliy mashgʻulotlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida yangi talablar qoʻyilmoqda, bu esa oʻz navbatida belgilangan davlat taʼlim standartlari malaka talablarida (DTS) da koʻrsatib oʻtilgan umumiy madaniy,

kasbiy, umumiy kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirishga qaratilganligini nazarda tutadi. Chet tillarni, xususan,–turli sohalarida yangicha yondashuv asosida chet tiliga o'rgatish shunday konsepsiyalardan biri bo'lib, nofilologik yo'nalishlar talabalariga dunyoni yaxlit holda qabul qilish, fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yish va turli fanlardan egallangan bilimlarni amaliy qo'llash, o'z faoliyatida tatbiq etishga yordam beradi. Hozirgi global axborot asrida talabalarning ijtimoiy, madaniy-maishiy, texnika, iqtisod, tibbiyot va turli sohaviy mavzularda xorijiy tillarda leksik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki chet tillarni har bir yo'nalishga va talabaning bilim darajasiga mos bo'lgan leksik va grammatik materiallarni tanlash asosida o'qitish, xususan, “Transport vositalari muhandisligi” ta'lim yo'nalishi talabalarini chet tili orqali mazmunli o'qitishda muhim o'rin egallaydi. Talabalarning turli mavzularga oid axborotlarni, turli fanlardan kerakli ma'lumotlarni to'plash, jumladan, ulardan nutqiy vaziyatga mos holda foydalanishda leksik materialning o'rni beqiyosdir, chunki ushbu materiallar yordamida Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalarini leksik va grammatik kompetensiyalari rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Sohaviy manbalar asosida chet tilida leksik hamda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish evaziga turli fanlardan egallangan bilimlarni uzviy bog'lash bilan bir qatorda, ularning boshqa til ko'nikmalarini integrallashtirish imkonini ham beradi. Bu ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda, turli fanlardan egallangan bilimlarni amaliy qo'llashga o'rgatish orqali talabalar umumiy dunyo qarashni shakllantirishda ham ahamiyatga egadir.

Yo'nalishga va talabaning bilim darajasiga mos bo'lgan leksik va grammatik materiallarni tanlash asosida o'qitish, xususan, Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalarini chet tili orqali mazmunli o'qitishda muhim o'rin egallaydi. Talabalarning turli mavzularga oid axborotlarni, turli fanlardan kerakli ma'lumotlarni to'plash, jumladan, ulardan nutqiy vaziyatga mos holda foydalanishda leksik materialning o'rni beqiyosdir, chunki ushbu materiallar yordamida “Transport vositalari muhandisligi” ta'lim yo'nalishi talabalarini leksik va grammatik kompetensiyalari rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Sohaviy

manbalar asosida chet tilida leksik hamda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish evaziga turli fanlardan egallangan bilimlarni uzviy bog‘lash bilan bir qatorda, ularning boshqa til ko‘nikmalarini integrallashtirish imkonini ham beradi. Bu ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishda, turli fanlardan egallangan bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘rgatish orqali talabalar umumiy dunyo qarashni shakllantirishda ham ahamiyatga egadir.

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan e‘tibor tabora davlat ahamiyatidagi masala sifatida nazorat qilinoqda, misol tariqasida ko‘rishimiz mumkinki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni almashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risida qarorining amalda tadbqiq etilishi shundan dalolat beradiki, yurtimizda chet tilini o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan talab yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori imzolandi va amalda tadbqiq qilina boshlandi, unga ko‘ra xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha tashkiliy ishlar samarali amalga oshirishirilyapti, jumladan, 2024/2025 o‘quv yiliga qadar davlat oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy tildan tashqari) o‘qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lishini taminlash xorijiy tillarni o‘qitishni raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish. Ushbu qarorga muvofiq olib borilayotgan sa’y harakatlami keltirib o‘tish mumkin:

a) hududlardagi IT-markazlarda yoshlarni xorijiy tillarga onlayn o‘rgatish kurslarini yo‘lga qo‘yish hamda ularga zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashda ko‘maklashish;

b) ta‘lim berish jarayonida o‘qitishning masofaviy (onlayn) texnologiyalari asosida tashkil etish ta‘lim tashkilotlarini o‘quv jarayonlariga keng jalb qilish;

- ta‘lim tashkilotining o‘quv vositalariga oid shartlarini qayta ko‘rib chiqib, o‘qitishning masofaviy (onlayn) texnologiyalariga oid alohida talablarni belgilash;

- ta'lim berish jarayonini tan olingan xorijiy va xalqaro standartlar asosida tashkil etish uchun huquqiy asoslarni shakllantirish;
- ta'lim berish jarayonini avtomatlashtirilgan dastur va videokurslar orqali masofaviy (onlayn) tarzda olib borish imkonini inobatga olish;
- ta'lim berish jarayoniga ayrim sohalar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida pedagog kadrlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ega shaxslarni ham jalb etish imkonini yaratish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13- maydagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tadbiq etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 395 -sonli qaroriga muvofiq, 2019-2020-oquv yilidan boshlab Oliy ta'lim muassasalariga kirish sinovlarida ingliz tili uchun quyidagi imtiyozlar belgilandi:

- test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili (ingliz, nemis, fransuz, ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tillari) (keyingi o'rinlarda chet tili deb ataladi) birinchi (asosiy) fan sifatida kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan va Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikat (keyingi o'rinlarda milliy sertifikat deb ataladi) yoki xalqaro sertifikat International English Language Testing System (IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English FCE xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori darajalariga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi, test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili birinchi (asosiy) bo'lmagan fan sifatida kiritilgan boshqa bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga (Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bundan mustasno) hujjat topshirgan va milliy yoki xalqaro sertifikatning International English Language Testing System (IELTS 4,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 42), Cambridge Assessment English PET xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B1 va undan yuqori darajalariga ega

bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi.

Natijalar va muhokama

Hozirgi kunda ESP, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish va o'rganish nazariyasi bo'yicha ko'plab monografiyalar mavjud, ESP, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganayotgan talabalariga chet til o'qitish metodikasi ham ishlab chiqilgan, turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizdagi rahbar xodimlar dunyoda yuz berayotgan rijovlanish davrida oliy o'quv yurtlarini tamomlayotgan har bir talaba kamida bitta xorijiy tilni mukammal bilishi kerak degan fikirni ilgari surishyapti. Ammo yurtimizdagi oliy ta'lim dargohlarini filologiya (xorijiy til) yo'nalishini tamomlayotgan talabalarning aksariyat qismi xorijiy tilini bilish darajasi boshqa yo'nalishda tahsil olayotgan talablarnikidan farq qiladi ularning deyarli teng yarimi til bilish sertifikatlariga ega emas. Sababi talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishga yo'naltirilgan yagona chet tili dasturi mavjud emasligini hisobga olgan holda yangi o'quv dasturini ishlab chiqish muammosi yuzaga kelmoqda. Biroq professor S.G. Ter-Minasova tomonidan dastur ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dastur oliy ta'limda xorijiy tilni o'qitishni modernizatsiya qilish bo'yicha zamonaviy hujjatlarda qayd etilgan qoidalarga asoslanadi:

- Chet tilini bilish oliy o'quv yurtida mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi.
- Chet tillari kursi ko'p bosqichli bo'lib, o'qish faoliyati jarayonida rivojlangan.

Biz ESP (maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rgatish) sinfida qo'llaniladigan usulni tanlaganimizda, o'quvchilarimiz, guruhimiz haqida o'ylashimiz va bitta uslubni o'quv materiallarimizga moslashtirishimiz kerak.

Ta'lim jarayonida ESP guruhidagi talabalariga mavzu mazmuni ingliz tilida qanday ifodalanganligi ko'rsatish, o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlaridan maksimal darajada foydalanishi mumkin, bu ularga ingliz tilini tezroq o'rganishga yordam beradi. [3; 9-15]

Hozirgi vaqtda, afsuski, ESP(maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rgatish)

o'qituvchisida guruhda talabalar bilan ishlash uchun etarlicha materiallar mavjud emas shu bois ESP (maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rgatish) mutaxassislarining ko'pchiligi o'quvchilarining aniq maqsadi va ehtiyojlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ESP (maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rgatish) o'quv materiallaridan foydalanadilar. Matnni formatlash va "viki" belgilash yordamida yaratilgan turli mavzularga oid matnlarni kiritish tahrir qilish yoki kiritishl bilan o'rganuvchilar uchun o'quv materiallarini yaratadi shuningdek matn, gipermatn va fayllarni, shu jumladan multimediyali Vikilarni birgalikda ishlab chiqish, saqlash, tuzish imkoniyatini yaratadi hamda o'quvchilar bilan darsda ham, mustaqil ravishda ishlashni ham jozibador qiladi. Bundan tashqari, Internetda o'quvchilar bilan ishlaydigan va ma'lum bir ta'lim topshirig'ini bajaradigan Web Quest sayti ham mavjud. Ushu sayt topshiriqlardan iborat bo'lib, ikki turga ajraladi yani bilimlarni to'ldirish va ularni keyinchalik birlashtirish maqsadida qisqa muddatli ish faoliyati uchun ko'maklashadi. Odatda ular bir yoki uch kurs uchun mo'ljallangan bo'lib ko'p yillar davomida talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish va o'zgartirish uchun yo'naltirilgan. Bunday veb -topshiriqlar uzoqroq muddatga mo'ljallangan bo'lishi mumkin - ehtimol semestr yoki o'quv yili so'ngigachan mo'ljallangan bo'lishi mumkin. O'quv veb -topshiriqlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, talabalarining yakka yoki guruhda ishlashi uchun ma'lumotlarning bir qismi yoki bir necha qismi har xil veb -saytlarda joylashgan bo'lib ularning guruh bilan ishlash faoliyatini yaxshilashga, mavzuga aloqador yangi ma'lumotlarni topishga yordam beradi. Veb- qidiruv texnologiyasi talabalarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi:

- kasbiy vazifalarni bajarish uchun IT-echimlardan foydalanish (shu jumladan, kerakli ma'lumotlarni topish, kompyuter taqdimotlari, veb -saytlar, yangi -videolar, ma'lumotlar bazalari ko'rinishidagi dizayn natijalari);
- jamoaviy ishlash (rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, o'zaro yordam va o'zaro nazorat);
- muammoli vaziyatni hal qilishning bir necha usullarini topa olish
- Notiqlik mahorati, chunki biz loyihani ochiqchasiga himoya qilishimiz,

savollarga javob berishimiz yoki munozaralarda qatnashishimiz kerak.

Ta'kidlash joizki, ESPni, yani maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish, uchun o'qituvchilar yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha doimiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Ajablanarlisi shundaki, yosh o'qituvchilar ko'pincha yangi texnologiyalarni namoyish etishda yaxshiroq natijalar ko'rsatadi, shuning uchun ular o'z sinflarida ushbu yangi texnologiyalarni joriy etishga harakat qilayotgan yoshi katta o'qituvchilar uchun ajoyib o'qituvchi bo'lishlari mumkin. Buning uchun chet tillari kafedrası o'quv jarayonida texnika va texnologiya yutuqlarini namoyish etish uchun ilmiy -uslubiy seminarlar va mahorat darslarini o'tkazishi kerak. Guruh muhokamalari va loyiha ishlari ham ESP talabalari bilan ishlash hamda o'rganishning samarali shakllari hisoblanadi. Ehtiyojlarni tahlil qilish (ETQ) odatda ESPda talabalarining ehtiyojlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Ehtiyojlar tahlilisiz muvaffaqiyatli natijani kutish mumkin emas. Albatta. Biz nima uchun ehtiyojlarni tahlil qilayotganimizni, qanday ehtiyojlarni qondirishni va bu qanday amalga oshirilishini bilishimiz kerak.

Braun (2016) o'quvchilardan ma'lumotlarni yig'ish juda muhimligini ta'kidlaydi[1;16-31].

Xatchinson va Uoters (1987) fikriga ko'ra ehtiyojlarni tahlil qilishning ikki turi mavjud[2;13-17]:

- a) maqsad ehtiyojlar (maqsadli vaziyatda o'quvchi nima qilishi kerak)
- b) o'rganish ehtiyojlari (talaba nimani qanday o'rganish uchun hamda biror narsa qilishi kerakli uchun qaratilgan).

Xulosalar

Ehtiyojlarni tahlil qilish ma'lum bir rolni bajarish uchun o'quvchiga qanday til ko'nikmalari kerakligini bilish uchun qaratilgan hamda o'quvchilar nimalarga qodir va ular nimaga qodir bo'lishi kerakligi o'rtasidagi farqni aniqlash va bilish uchun xizmat qiladi. Ehtiyojlarni tahlil qilish bizga o'quvchilarning ehtiyojlari haqida yaxshi tasavvur beradi va biz qanday qilishimiz mumkinligi, ularni qanday baholashimizga yordam beradi. Ushbu maqolada ESP talablari uchun

qo'llaniladigan metodlarni o'rganishga harakat qilindi. Ammo amin bo'lindiki Graddoll aytganidek ESP talabalariga chet tilini o'qitishning eng yaxshi metodi mavjud emas degan fikriga. ESP, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganuvchilar uchun har qanday usulni kontekstga muvofiq sinfda foydalanish uchun tanlash mumkin. [4;19-31] Biroq tan olish kerakki usullar va yondashuvlar ehtiyojlar tahliliga qarab o'zgaradi, shu jumladan o'quvchi turlari va qaysi sohaga qiziqishida ham o'zgaradi shu bois o'rganuvchilar ehtiyoji hamda qiziqishiga qarab maqbul metodlarni yaratish ularni talabalar orasida keng joriy etish lozim deb hisoblaymiz.

B.Xoliyorov pedagogik texnologiyalar haqida quyidagi fikrlarni o'z maqolalarida keltirib o'tganlar: "Pedagogik texnologiyalarning asosiy mazmuni, insonning ehtiyojlariga, qiziqishlariga, iste'dodlariga va qobiliyatlariga asoslangan holatda tanlanishi lozim. Shuningdek, ta'limning mazmuni insonning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhitni yaratib berishdadir. Shuning uchun, ta'lim mazmuni insonlarning g'oyalari va ular tanlagan standartlariga asoslanishi kerak." [5;78-79] Ko'rinib turibdiki, to'g'ri tanlangan pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni belgilab beradi. Shunday ekan har bir o'qituvchi tanlagan texnologiya talabaning ehtiyojlari, qobiliyatlari, istak va xohishlariga asoslangan holda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Hutchinson, T. Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning- centred Approach, CUP, Cambridge, 1987.
2. Brown, J. D. Introducing Needs Analysis and English for Specific Purposes. Routledge, Oxon .
3. Tom Hutchinson & Alan Waters. English for Specific Purposes. - Cambridge University Press, 2006. - P. 9-15.
4. Graddoll D. English next. URL: <http://www.britishcouncil.org/learning-research-english-next.pdf>.
5. B.H. Xoliyorov. New methods of pedagogical technologies used in foreign language teaching. NOVATEUR PUBLICATIONS Journal NX- A

Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8,
ISSUE 4, Apr. -2022 78-79

6. B. D. Farmonov Multilevelni transport yo‘nalishida o‘qiydigan talabalarga
o‘rgatish. Tadqiqotlar jahon ilmiy -metodik jurnali, -2023 5-6

<http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/889>